



## Ways to improve state procurement and its organization

Saidmukhammad IBODULLAYEV<sup>1</sup>

Law Enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan

### ARTICLE INFO

**Article history:**

Received December 2024  
Received in revised form  
15 December 2024  
Accepted 20 January 2025  
Available online  
15 February 2025

**Keywords:**

government procurement,  
specialized information  
portal,  
procurement procedure,  
budget,  
state budget.

### ABSTRACT

This article examines the fundamental reforms being implemented to improve the public procurement system, the role of this system in the targeted and rational use of state budget funds, as well as develops scientific conclusions and recommendations for more effective organization of the public procurement system in our country.

2181-1415/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol6-iss1/S-pp139-142>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

## Davlat xaridlari va uni tashkil etilishini takomillashtirish yo'llari

**Kalit so'zlar:**

davlat xaridlari,  
maxsus axborot portali,  
xarid qilish tartib-taomili,  
byudjet,  
davlat byudjeti.

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada davlat xaridlari tizimini takomillashtirish sohasida amalga oshirilayotgan tub islohotlar, ushbu tizimning davlat byudjeti mablag'laridan maqsadli va oqilona foydalanishdagi o'rni, shuningdek, mamlakatimizda davlat xaridlari tizimini yanada samarali tashkil etish bo'yicha ilmiy xulosa va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

## Пути совершенствования государственных закупок и их организации

**Ключевые слова:**

государственные закупки,  
специальный  
информационный портал,

### АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются коренные реформы, осуществляемые в сфере совершенствования системы государственных закупок, роль этой системы в целевом и рациональном использовании средств государственного

<sup>1</sup> Master degree student, Law Enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan.  
E-mail: Saidibodullayev@gmail.com

процедура закупок,  
бюджет,  
государственный бюджет.

бюджета, а также разработаны научные выводы и рекомендации по более эффективной организации системы государственных закупок в нашей стране.

## KIRISH

Davlat byudjeti davlatning markazlashtirilgan pul mablagʻlari boʻlib, unda daromad manbalari va ulardan tushadigan tushumlar, shuningdek xarajat hajmi va yoʻnalishi oʻz aksini topadi. Davlat xarajatlarning ajralmas tarkibiy qismi sifatida davlat xaridlari muhim ahamiyatga ega hamda u davlatning oʻz vazifa va funksiyalarini amalga oshirishda asosiy vositalardan biri hisoblanadi.

Davlat sektori oʻziga yuklatilgan vazifa va funksiyalarni amalga oshirish, iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi farovonligini taʼminlash va turmush darajasini yaxshilash hamda shu kabi boshqa koʻplab yoʻnalishlardagi ustuvor maqsadlarga erishishni taʼminlash uchun tovar, ish va xizmatlar bilan taʼminlab turilishi zarur. Bunda albatta davlat xaridlariga ehtiyoj seziladi.

**Davlat xaridlari** – byudjet tizimi byudjetlarining mablagʻlari hisobidan amalga oshiriladigan tovarlar, ish va xizmatlar xaridlaridir. Boshqacha soʻz bilan aytganda, **davlat xaridlari** – tovar (ish, xizmat)larni davlat buyurtmachilari tomonidan pulli asosda olish hisoblanadi. Davlat xaridlarining mohiyatini toʻliq tushunishda uning vazifalariga eʼtibor berish lozim.

Davlat xaridlarining vazifalari davlat boshqaruvi faoliyati uchun zarur tovar, xizmat va ishlar bilan oʻz vaqtida, kerakli miqdorda va turda, sifatda hamda narxda taʼminlashdan tashqari raqobatni rivojlantirish uchun davlat xaridlariga koʻproq tadbirkorlik subyektlarini jalb qilish, ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatini yaxshilash, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni xalqaro andozalarga mos sifatli mahsulot ishlab chiqarishga undashdan iboratdir. Bu vazifalarni amalga oshirish orqali mamlakat iqtisodiyoti rivojiga hamda ijtimoiy sohadagi ijobiy oʻzgarishlarga taʼsir koʻrsatish mumkin boʻladi.

Davlat xaridlari bozor elementi hisoblanib, uning yordami bilan iqtisodiyotning turli sohalarida mablagʻlarni taqsimlash va samaradorligini oshirish sodir boʻladi. Bu esa davlat xaridlari sohasiga eʼtiborli boʻlishni va uni rivojlantirishni talab qiladi, bunda albatta tizimli yondashuv zarur.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Respublikamizda davlat xaridlari tizimini shakllantirish va takomillashtirish maqsadida islohotlar oʻtkazishga katta ahamiyat berilmoqda. Xususan, Vazirlar Mahkamasining “Davlat xaridlarini amalga oshirishda xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish jarayonlarini axborot-kommunikasiya texnologiyalaridan foydalangan holda yanada takomillashtirish choralari toʻgʻrisida”gi qarori qabul qilindi.

Ushbu qaror bilan “Davlat xaridlari toʻgʻrisida”gi Qonunga muvofiq Moliya vazirligiga quyidagilarni amalga oshirish topshirildi:

- 2021-yil 1-aprelga qadar maxsus axborot portalida qurilish sohasida davlat xaridlarini elektron shaklda oʻtkazishni nazarda tutuvchi alohida sahifa yaratish;
- 2021-yil 1-mayga qadar Markaziy axborot portalini yaratish boʻyicha texnik-loyiha hujjatlarini ishlab chiqish va belgilangan tartibda Axborot texnologiyalari va kommunikasiyalarini rivojlantirish vazirligida ekspertizadan oʻtkazish;
- 2021-yil 1-sentyabrga qadar davlat xaridlari boʻyicha barcha maʼlumotlarni jamlovchi va tashqi axborot tizimlar bilan oʻzaro elektron hamkorlikni taʼminlovchi Davlat xaridlari markaziy axborot portalini dasturiy majmuasini yaratish va uni kuzatishni taʼminlash choralari koʻrish.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

- Markaziy axborot portalini ishlab chiqish va uni kuzatishni ta'minlash Moliya vazirligining Axborot-hisoblash markazi tomonidan amalga oshiriladi. Markaziy axborot portalini ishlab chiqish va uni kuzatishni ta'minlash xalqaro moliya institutlaridan jalb qilinadigan mablag'lar hamda Moliya vazirligi Axborot-hisoblash markazining o'z mablag'lari hisobiga amalga oshiriladi.

- 2021-yil 1-apreldan boshlab davlat xaridlari ijrochisining muassislari to'g'risidagi ma'lumotlar Moliya vazirligi va DSQ axborot tizimlari o'rtasidagi axborot almashinuvidan foydalangan holda davlat buyurtmachilari bilan tuzilgan shartnomalar reyestriga kiritiladi.

- Hujjat bilan Davlat xaridlari markaziy axborot portalini yuritish bo'yicha funksional talablar hamda Davlat xaridlari sohasida foydalaniladigan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) milliy klassifikatorini yuritish qoidalari tasdiqlandi.

- Davlat xaridlarining ochiq va shaffof mexanizmini yaratish, uni takomillashtirish, savdolarining korrupsiyadan holi tarzda o'tkazilishini ta'minlash maqsadida respublikada amalga oshirilayotgan ishlar va ko'rilayotgan chora-tadbirlarni uzviy davom ettirish bilan birga mavjud muammolarni o'z vaqtida bartaraf etish ham zarur.

Xaridlarni amalga oshirish bilan bog'liq ayrim muammo va kamchiliklar yuzaga kelmoqda. Masalan, "Davlat xaridlari to'g'risidagi qonun"ning 44-moddasiga asosan xarid qilish tartib-taomili yakuniga ko'ra elektron do'konda tovar (ish, xizmat) mavjud emasligi sababli shartnoma tuzilmagan bo'lsa, davlat buyurtmachisi mustaqil ravishda tanlangan yetkazib beruvchi bilan shartnoma tuzish orqali to'g'ridan-to'g'ri xaridni amalga oshirishga haqli hisoblanadi. Elektron do'konda barcha turdagi tovarlar mavjud bo'lmaganligi oqibatida buyurtmachilar va mahsulot yetkazib beruvchilar o'rtasida raqobatga asoslanmagan tarzda tuzilayotgan to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar soni ortmoqda.

Shu kabi vaziyatlarning oldini olish uchun respublikamizda davlat xaridi tizimini takomillashtirish va kichik biznes subyektlarini davlat buyurtmalarida ishtirokini ta'minlash orqali iqtisodiy rivojlanishga ta'sir etish masalasiga muhim yo'nalish sifatida e'tibor qaratilmoqda. Shu nuqtai nazardan, xorijiy tajribalarni o'rganish va davlat xaridi tizimida bu tajribalardan foydalanish, mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik va kichik biznes subyektlari faoliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

## **XULOSA**

Xulosa sifatida aytish mumkinki, byudjet mablag'larining samarali sarflanishi har bir davlatning har qanday davrdagi muhim masalalardan biridir. Davlat xaridi jarayonini takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan qonun va qarorlar ushbu masalalarning yechimini topishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga, davlat xaridlarini amalga oshirishda tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni yetkazib beruvchilarning mas'uliyatsizligi yuzasidan javobgarligiga belgilangan jarima miqdorining kamligi buyurtmachilarga tovar (ish, xizmat)larning o'z vaqtida va belgilangan talablarda yetkazib berilishida bir qator muammolarga sabab bo'lmoqda. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi, ushbu sohavakillarining davlat va korporativ xaridlar jarayonini jalb qilish orqali davlat tashkilotlarining uzluksiz va samarali faoliyat ko'rsatishi ta'minlanadi.

Shulardan kelib chiqqan holda, byudjet tashkilotlarining davlat xaridlarini amalga oshirishdagi moliyaviy munosabatlarini samarali tashkil etish yuzasidan quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

– to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar qilish huquqiga ega bo‘lgan tovar (ish, xizmat)lar ro‘yxatini kengaytirish;

– davlat xaridi jarayonidagi ishtirokchilarning mas‘uliyatsizligi yuzasidan javobgarligini kuchaytirish;

– davlat xaridi jarayoniga tadbirkorlik subyektlarini yanada keng jalb qilishda xorij amaliyotini o‘rganib chiqish.

Buning natijasida, buyurtmachilarga zarur bo‘lgan ishlar, xizmatlarning maxsus axborot portalida e‘lon qilinishi natijasida ushbu ishlar, xizmatlarga bo‘lgan taklif oshadi, ular orasidagi raqobatning mavjudligi sababli, ish, xizmatlarning narxini tushishiga olib keladi, natijada byudjet tashkilotlarining mazkur ish, xizmatlar uchun ajratilgan pul mablag‘lari tejaladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi. // Lex.uz. [Elektron resurs]. <https://www.lex.uz/acts/2304138> (murojaat qilingan sana: 10.01.2025).

2. O‘zbekiston Respublikasi “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonuni (22.04.2021-yildagi O‘RQ-684-son) // Lex.uz. [Elektron resurs]. <https://lex.uz/docs/5382974?ONDATE=22.02.2024>; (murojaat qilingan sana: 10.01.2025).

3. Vazirlar Mahkamasining 26.01.2021-yildagi «Davlat xaridlarini amalga oshirishda xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish jarayonlarini axborot-kommunikasiya texnologiyalaridan foydalangan holda yanada takomillashtirish choralari to‘g‘risida»gi 37-son qarori. // Lex.uz. [Elektron resurs]. <https://lex.uz/docs/5243631?ONDATE=05.04.2022> (murojaat qilingan sana: 10.01.2025).

4. O‘roqov U. Davlat xaridlari tizimi: kecha va bugun. «Bozor, pul va kredit» jurnali, 8-son, 2018 y.

5. Sheshukova T.G. Sistema gosudarstvennyh zakupok: ponyatiye, vliyaniye na ekonomiku // [Elektron resurs]. <https://cyberleninka.ru/article/n/sistema-gosudarstvennyh-zakupok-ponyatie-vliyanie-na-ekonomiku/viewer> (murojaat qilingan sana: 10.01.2025).

6. [www.norma.uz](http://www.norma.uz)